## ONA TILI (MAJBURIY)

1. Qaysi qatordagi otlashgan so'z sifat bilan ifodalangan?
   A) Ilg`orlarga mukofotlar topshirildi.
   B) Ustimizdan yozganlar endi nima qilarkan?
   C) Yugurgannikimas – buyurganniki.
   D) Tarbiyali bola ota-onasini uyatga qo'ymaydi.

2. Qaysi javobda paronim bilan bog`liq xatolik bor?
   A) Qal`a mustahkam, beklar sadoqatli, shuning uchun dushmanga aslo bo`yin egmaymiz.
   B) Do`stim ko`proq ilmiy ish bilan shug`ullanishni afzal ko`radi.
   C) Konstitutsiya 6 bo`lim, 26 bob, 128 moddadan iborat.
   D) Ularning tup maqsadini bilib olishimiz kerak.

3. *ot+ot* shaklidagi so'z berilgan qatorni toping?
   A) oqqush B) otboqar
   C) karnaygul D) achchiqtosh

4. Qaysi qatorda shaxs oti qatnashgan?
   A) Olimtoy yana eski ishini boshladi.
   B) Toshkent va Samarqandda bo'lgan Alisher oshib-toshib gapirar edi.
   C) Qorovultog'dan hamma narsa kichik ko'rinadi.
   D) Yigit va qiz bu haqida bilishmas edi.

5. O`zaro zid ma`noli so`zlar juftligini aniqlang.
   A) boy – kambag`al B) moziy – o`tmish
   C) mushkul – dushvor D) uquvsiz – noshud

6. Yoshlarning halol va haromni farqlab olishlari, shubhasiz, jinoyatchilar olamining kamayishiga olib keladi.
   Ushbu gapda ostiga chizilgan so`zning tasviriy ifodasi qaysi qatorda to`g`ri berilgan?
   A) taraqqiyot kushandasi B) yomonliklar kaliti
   C) jamiyatga tushgan qurtlar D) oq ajal

7. Faqat tobe qismi yasama so`z bilan ifodalangan otli so`z birikmalarini aniqlang.
   A) sarflangan vaqt, diyonatli inson
   B) quvonchli xabar, baxtli bolalik
   C) befoyda mashg`ulot, behuda urinmoq
   D) donishmand ustoz, o`zlikni anglamoq

8. *Ergash bu xabarni eshitib dami chiqmadi*.
   Ushbu gapda ajratib ko`rsatilgan iboraning ma`nosi qaysi qatorda to`g`ri berilgan?
   A) qo`rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo`lib qoldi.
   B) hech narsa demadi, indamadi.
   C) oshkor bo`lishdan qo`rqib gapirmadi.
   D) bir so`z ham ayta olmay qoldi.

9. Qaysi javobda shaxsi (egasi) ma`lum gap berilgan?
   A) Oyni etak bilan yopib bo`lmaydi.
   B) Boshingga qilich kelsa ham, to`g`ri gapir.
   C) Qachongacha faqat o`z nafsingni o`ylab yashaysan, uka.
   D) Ilm hayo bilan kibr orasida yo`q bo`lib ketadi.

10. Qaysi javobda miqdor sonning bir ma`noviy turiga mansub so`zlar qatori berilgan?
    A) sakkiz, uchalasi, qirqta
    B) beshtadan, yettita, minglab
    C) beshdan ikki, chorak, yarim
    D) yuzlab, mingtacha, to`qqiz

## MATEMATIKA (MAJBURIY)

11. 1-shahar aholisi ikki million yetmish besh ming bo`lib u ikkinchi shahar aholisidan besh yuz oltmish yetti ming uch yuz yigirma sakkizta ortiq bo`lsa, ikkinchi shahar aholisini toping.
    A) 2642328 B) 1507672
    C) 2182672 D) 1440172

12. 8781-6275 ayirma qiymatini toping.
    A) 2406 B) 2500 C) 2506 D) 2501

13. $(3658-650)-(1875-870)$ ning qiymatini toping.
    A) 1008 B) 2003 C) 1003 D) 2008

14. 787-251 ayirmani aniqlang.
    A) 536 B) 546 C) 561 D) 526

15. 486-214 ayirma javobini toping.
    A) 372 B) 271 C) 242 D) 272

16. 9, 3, 5, 7, 0 raqamlar yordamida hosil qilish mumkin bo`lgan eng katta va eng kichik 5 xonali sonlar ayirmasini toping.
    A) 61821 B) 66951 C) 62471 D) 62451

17. Yig`indining 5 barobarini toping.
    2587 + 6483
    A) 45350 B) 45643 C) 45300 D) 45305

18. 5592-2869 ayirma qiymatini toping.
    A) 2723 B) 2473 C) 2733 D) 2724

19. Quyidagi ko`paytmalarning qaysi biri eng katta?

| 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|
| 23 x 22 | 48 x 20 | 34 x 17 | 18 x 36 |

    A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

20. Fermadagi jonivorlarning boshlari soni oyoqlari sonidan 300 ta kam bo`lsa bu fermada nechta jonivor bor.
    A) 100 B) 150 C) 200 D) 300

## O`ZB. TARIXI (MAJBURIY)

21. XII asr oxirida Kubroviya tariqati vujudga kelgan hududni toping.
    A) Samarqand B) Farg'ona
    C) Xorazm D) Buxoro

22. Quyidagilardan "Sharq Arastusi" nomi bilan shuhrat qozongan allomani toping.
    A) Muhammad al-Xorazmiy B) Abu Rayhon Beruniy
    C) Abu Nasr Farobiy D) Abu Ali ibn Sino

23. Zardushtiylik dinidagi quyosh va yorug'lik xudosini

toping.
A) Ahriman  B) Mitra
C) Anahita  D) Ahuramazda

24. Quyidagi shaxslardan qaysi biri Turkiston general-gubernatori sifatida faoliyat yuritmagan?
A) M.Skobelev  B) S.M.Duxovskoy
C) A.Vrevskiy  D) K.P.Kaufman

25. Qaysi javobda bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy partiya nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) O‘zbekiston kommunistik partiyasi
B) O‘zbekiston «Vatan taraqqiyoti» partiyasi
C) O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi
D) Erk demokratik partiyasi

26. 1512-1770-yillarda Xorazmda qaysi sulola hukmronlik qilgan?
A) shayboniylar  B) qo‘ng‘irotlar
C) ashtarxoniylar  D) mang‘itlar

27. "Jadid" so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, qanday ma’noni bildiradi?
A) "mustamlakachilik"  B) "davlat"
C) "yangi"  D) "ozodlik"

28. Qaysi javobda Movarounnahrda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon ko‘rsatilgan?
A) Abu Muslim qo‘zg‘oloni
B) Muqanna qo‘zg‘oloni
C) Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni
D) Rofe’ ibn Lays qo‘zg‘oloni

29. Qaysi manbalarda Qang’ davlati Qang’yuy deb atalgan?
A) Behistun bitiklarida  B) Qadimgi yunon manbalarida
C) Xitoy manbalarida  D) Avestoda

30. Abu Sahl Masihiy nechanchi yillarda yashagan?
A) 991-1048-yillarda.  B) 973-1048-yillarda.
C) 970-1011-yillarda.  D) 980-1037-yillarda.